



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KAUZATIV EMOTSIONALLIKNING
IFODALANISH TIPOLOGIYASI

Tursunoy Uralova

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

Annotatsiya: *Ingliz va o'zbek tillarida kauzativ emotsionallikning ifodalanish tipologiyasi xaqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *kauzativ emotsionallik, emotsiya, emotsional leksika, emotsionallik universal.*

Insoniyatning turmish tarzidagi eng muhim jarayonlardan biri bo'lib nutq muomalasi hisoblanadi. Nutq jarayonida esa shaxslar o'rtasida turli emotsional vaziyatlar, emotsional munosabatlar vujudga keladi. Emotsiyalar insonning o'y-fikri, qarashlari va harakatlariga juda katta ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham emotsiyalar turli sohalarda o'rganilmoqda va tadqiq etilmoqda. Jumladan, psixologiya, lingvistikada va b.

Emotsionallikni universal hodisa deb hisoblaydiganlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Demak, emotsional birliklarning qiyosiy tahlili taqqoslanayotgan tillardagi so'z birliklari nafaqat ifodalanish usuli, balki o'sha tillarning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishga ham xizmat qiladi. Emotsional leksikaning tipologik strukturasi ko'rilayotgan har bir tilda o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ta'kidlanadi⁹. Ingliz va o'zbek tillaridagi emotsional leksika ham o'z strukturasi va ifoda planiga ko'ra tubdan farqlanadi.

Emotsiya tadqiqotlariga bag'ishlangan ishlarda odatda emotsiyalarni ijobiy, salbiy va ba'zi tilshunoslikda yoqimli, yoqimsiz kabi oppozitsiyaga ajratgan holda tadqiq etish keng tus olgan. "Har qanday emotsiya biror belgiga ega bo'lib, pozitiv, salbiy yoki ambivalent kabi emotsional guruhlarning biriga tegishli bo'ladi"¹⁰. Emotsiyalarning lingvistik tasviri ushbu tilshunoslar qarashlaricha eksperienserning "yaxshi" (xursandchilik, g'urur kabi ijobiy emotsiyalarning boshidan kechirishida) yoki "yomon" (qo'rquv, g'azab, uyat holatlarida) holatlarni his etishiga asoslanishadi¹¹. Jumladan, A.L.Groysman salbiy emotsiyalarni fiziologik jihatdan tasniflar ekan, u emotsiya va his-tuyg'ularni quyidagicha tasniflaydi: "qoniqish hosil qilmaslik, iztirob, g'am-g'ussa, g'azab, aziyat chekish, xafa bo'lish, qo'rquv, dahshatga tushish, rahm-shafqat, hamdardlik, afsus-nadomad, g'azab, haqoratlanish hissiyoti, nafratlanish, nafrat, sovuqchilik, hasad, hasadgo'ylik, adovat, xusumat, yovuzlik, darg'azablik, ishonchsizlik, uyat, jirkanish, afsuslanish, chidamsizlik,

⁹ Апресян В.Ю. Русские и английские эмоциональные концепты // Труды международной конференции. -С. 4-16.

¹⁰ Балаганина Л. Н. Метафорические концепты эмоциональных состояний [Электронный ресурс]. URL: <http://frgf.utmn.ru/last/No13/text03.htm>

¹¹ Головановская М.К. Французский менталитет с точки зрения носителя русского языка (контрастивный анализ лексических групп со значением «высшие силы и абсолюты», «органы наивной анатомии», «основные мыслительные категории», «базовые эмоции»). – М., изд-во МГУ, 1997. –С. 155-194; Зайкина С.В. Специфика осмысления концепта «страх» английским и русским языковым сознанием (сопоставительный аспект) // Человек в коммуникации : аспекты исследований : сб. науч. ст. – Волгоград: Перемена, 2005. – С. 28-33; Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матнинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол. фанлари доктори. ... дисс. автореферати. – Т., 2010. – 46 б.

vijdon azobi, vijdonsizlik, nolish" va boshqalar¹². Emotsionallikni yuzaga kelishini ham uch turga ajratishimiz mumkin: subyektning ichki hissiyotlari orqali hosil bo'ladigan emotsionallik, emotsional munosabat, kauzativ emotsionallik. Subyekt bilan bog'liq bo'lgan emotsionallik shaxsning hissiyotlari orqali ifodalansa, emotsional munosabat subyektning biror obyekt, voqea-hodisa orqali yuzaga keladigan emotsiyasi va, shuningdek, subyektning obyektga nisbatan yuzaga keladigan emotsiyalari tegishli bo'lsa, kauzativ emotsionallik esa shaxsning adresatni majburiy emotsional holatga kelishidagi harakati deb baholash mumkin. Tahlilimiz obyekt bo'lib keltirilgan emotsional belgilardan kauzativ emotsionallik o'rin egallagan. Kauzativ emotsionallik odatda subyektning obyektga ta'siri sifatida qaraladi. Kauzativ emotsionallik ham ta'kidlangan salbiy va ijobiy ifodalanishga ega. Salbiy kauzativ emotsionallik shaxsga yoqimsiz bo'lgan (qo'rqish, jahl chiqish va boshqalar) holatni vujudga keltiradi. Sintaktik jihatdan qaralganda kauzativlik "emotsiyaning ifodalanishida eksperienser sintaktik nuqtai nazardan obyekt sifatida qatnashadi"¹³.

Ingliz tilida kauzativ emotsionalliklikni anglatadigan *to cheer up, to shame, to move* kabi fe'llar mavjud bo'lib, ular intensional va shu bilan birga adresatda emotsiyani (ham salbiy ham ijobiy) hosil qiluvchi harakatni bildirishadi. Shuningdek, intensional maqsad ma'nosiga ega bo'lmagan emotsional kauzativ *to disgust, to sadden, to anger, to irritate* kabi fe'llar guruhiga kiritish mumkin.

Xususan, ingliz tilida salbiy kauzativ emotsionallik ma'lum guruh fe'llarning o'timlilik xususiyati asosida ifodalanadi. Ushbu guruh fe'llariga *to frighten, to tease, to dread, to horrify, to shame, to scare* va boshqalarni kiritish mumkin. Kauzativ emotsional munosabat fe'llari semantik jihatdan mikromaydonni hosil qiladi va subyektning adresatga nisbatan salbiy hamda ijobiy munosabatini anglatadi. Masalan: *Stash would not permit Francesca to set the pace, but brought her with infinite skill to an orgasm so stabbing, so victorious that it frightened her* (J. Krantz, 25); *I think we shall stay well under that – I do not want to frighten Boris* (J. Krantz, 37); "No, Tatiana, darling, don't be silly I was teasing him and the little one got angry" (J. Krantz, 45); *To have done so would have insulted the Prince* (J. Krantz, 32).

Keltirilgan misollarda subyekt biror hissiyotni obyektga (obyekt sifatida shaxs nazarda tutilgan) ta'sir o'tkazish va, shuningdek, ma'lum bir tashqi ta'sir natijasida psixoemotsional holatni kechirgan obyekt kauzatsiyaga uchragan shaxs hisoblanadi. Kauzator va kauzatsiyalanuvchi o'rtasidagi kauzativ semantik ma'no mazkur fe'llarning leksik-semantik ma'nolari yordamida amalga oshadi. Misollarda ifodalangan salbiy emotsional munosabatdagi kauzativlik ma'lum nutq jarayonida yuzaga kelgan intensiya sifatida baholanadi. Kauzativ emotsional munosabat fe'llari strukturasi motiv, maqsad, obyekt, jarayon komponentlariga ega.

O'zbek tilida kauzativ emotsional munosabat fe'llarining (xususan, kauzativlik) o'z morfologik shakliy xususiyatning mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, o'zbek

¹² Жельвис В.И. Эмотивный аспект речи: Психолингвистическая интерпретация речевого воздействия: Учебное пособие / В.И. Жельвис. – Ярославль: ЯГПИ им. К.Д. Ушинского, 1990. – 81 с.

¹³ Lapata M., Brew C. Verb class disambiguation using informative priors [Text] / M. Lapata, C. Brew // Computational Linguistics. – 2004. – № 30(2). – P. 45-73.

tilidagi *-it, -at, -ir* kabi qo'shimchalar kauzativ emotsional semantik ma'noni yuzaga keltirish xususiyatiga ega. Emotsional munosabat fe'llari sinfiga tegishli fe'llar subyektning his-tuyg'ularini obyektga bo'lgan munosabatidan tashqari obyektga baho berish, obyektga nisbatan turli munosabatlar bildirish kabi ma'nolarda ham keladi. Masalan: *Toshgan daryoday to'qinlanayotgan bir necha ming kishilik izdixom Nosirbekni qo'rqitib yubordi* (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar"); *Ko'z yosh qildi (kampir), o'lib qolaman bunaqada, deb qo'rqitdi, Odamboygga ta'sir qilmadi* (O.Umarbekov. "Odam bo'lish qiyin"); *Bu savol Boburning etini junjiktirdi* (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar"); *Bu bilan bechoralarni battar qo'rqitardi va buning uchun ich-ichidan zavqlanardi* (O.Umarbekov. "Odam bo'lish qiyin").

Keltirilgan ingliz va o'zbek tillaridagi tahlillarga asoslanadigan bo'lsak, kauzativ emotsional fe'llari bevosita kauzatsiyalanuvchi obyekt olishadi. Kauzativ emotsional fe'l leksemalarining semantik xususiyatlari sintaktik boshqaruv bilan bog'liq hisoblanadi.¹⁴ Demak, ko'p hollarda emotsional kauzativlikning ifodalanishida so'z yoki birikmaning strukturasi ta'sir etadi. Emotsional kauzativlik faqatgina fe'l+kauzatsiyalanuvchi obyekt strukturasi bilan cheklanib qolmaydi. Ingliz tilida mazkur ifodaga ega bo'lgan *do smb harm, make smb sad, treat smb badly* va boshqa shu kabi morfosintaktik strukturalar mavjud bo'lib, kauzativ fe'llar emotsionallikni anglatuvchi sifat yoki ravishlar bilan birikib o'ziga xos emotsional kauzativ konstruksiyalarni hosil qiladi. Ushbu konstruksiyalar ham salbiy ham ijobiy kauzativ emotsiyalarni anglatish uchun qo'llanila oladi. Emotsiyaning salbiy yoki ijobiyliги emotsionallikni ifodalovchi sifat, ravishning leksik semantikasiga bog'liq. Fe'l esa kauzativ harakatni bajaradi. Masalan: *When she was really determined – she decided to make her happy* (J. Krantz, 229); *The thought that Emily would have to manage on her own made him angry* (J. Krantz, 266); *I knew we shouldn't have come to Europe. It makes people crazy!* (J. Krantz, 28); *The very word filled him with horror* (J. Krantz, 35).

Keltirilgan misollarda subyektning obyektga nisbatan intensional harakati, ya'ni obyekt vazifasidagi shaxsda salbiy yoki ijobiy emotsiyaning yuzaga keltirishga qaratilgan bo'lsa, keyingi misollarda ma'lum vaziyat, harakat shaxsni emotsional holatga olib kelgan. Kauzatsiya fe'l semantikasi yordamida ifodalangan.

Kauzativ emotsionallik o'zbek tilida ham o'ziga xos konstruksiya va birikmalar yordamida ifodalana olish imkoniyatiga ega. Mazkur birikmalarda emotsionallikni anglatuvchi ot va fe'l birikmasi orqali yuzaga keladigan murakkab fe'l analitik shakli va kauzatsiyalanuvchi obyekt qatnashadi. Mazkur hollarda emotsionallik murakkab fe'l birikmasidagi ot orqali ifodalanadi. Masalan: *Ular bilan muomala qilishning qiyinligi qalbiga tahlika soldi* (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar"); *Shayboniyxonning Toshkentga hujum qilish ehtimoli Mahmudxonni anchadan beri tahlikaga solib kelardi* (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar"); *Shahrisabzdan kelgan maxfiy xabar xonni iztirobga solib qo'ydi* (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar");

¹⁴ Radden G. The conceptualization of emotional causality by means of prepositional phrases // Speaking of Emotions. Conceptualization and Expression. E Tabakowskaya (eds). Gruyter. -Berlin -New York, 1998. -P. 273-294; Ortony A., Clore G.L. & Collins A. The cognitive structure of emotions. -Cambridge; New York etc. Cambridge University Press, 1988.- P. 28.

Odamboy quloq solmadi. Qaytaniga qo'llarini silkitib, buqaning achchig'ini chiqara boshladi (O.Umarbekov. "Odam bo'lish qiyin").

Kauzativlik faqatgina subyekt va adresat o'rtasida emas, balki voqea-hodisaning ta'siri natijasida adresatning emotsional holatga tushishida ham kuzatilishi mumkin. Shuningdek, voqea-hodisalaridagi ma'lumotning salbiy yoki ijobiyliigi adresatda salbiy yoki ijobiy emotsional holatning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Kauzativ emotsionallik subyektning adresatni majburiy, kutilmagan hollarda emotsional holatga tushirishini anglatadigan harakat sifatida baholanadi. Tahlil jarayonida kauzativ emotsionallik harakati bevosita subyekt (shaxs, hodisa, ma'lumot, nutq birligi) adresat yoki obyekt (shaxs) va kauzativ semantikaga ega bo'lgan fe'l, fe'lli birikmalardan iborat bo'ladi. Umumiy planda ingliz va o'zbek tillaridagi kauzativ emotsionallikning ifodalanish strukturasi quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin:

Ingliz tili	O'zbek tili
Caus.v+obj	ob'ekt+ fe'l kauzativ qo'shimcha <i>-it, -at, -ir</i>
Caus. V+obj+emotional adj.or adverb	Ob'ekt+sifat (ravish) fe'l

Ingliz va o'zbek tillaridagi kauzativ emotsionallik tahlili shuni ko'rsatdiki, ijobiy kauzativ emotsionallik ma'lum ma'noda intensionallik semantikasiga ega. Shuningdek, subyektning adresatga nisbatan ta'sir etish maqsadidagi kauzativlik ham intensional kauzativ emotsionallikni ifodalaydi. Mazkur tillarda ifodalanadigan kauzativ emotsionallik strukturaviy, morfologik nuqtai nazardan farqlanadi (albatta, emotsional kauzativlik ushbu tillarning lingvomadaniyatida o'ziga xos farqlar bilan anglashilishi mumkin. Bu hol bizning obyektimizga kirmaganligi sababli ushbu tahlilda to'xtalmadik). Ingliz tilida kauzativ emotsionallik maxsus birikmalar bilan markerlangan bo'lsa, o'zbek tilida kauzativ emotsionallikni bildiradigan maxsus morfologik ko'rsatgichlarga egaligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Апресян В.Ю. Русские и английские эмоциональные концепты // Труды международной конференции. -С. 4-16.
2. Балаганина Л. Н. Метафорические концепты эмоциональных состояний [Электронный ресурс]. URL: <http://frgf.utmn.ru/last/No13/text03.htm>
3. Головановская М.К. Французский менталитет с точки зрения носителя русского языка (контрастивный анализ лексических групп со значением «высшие силы и абсолюты», «органы наивной анатомии», «основные мыслительные категории», «базовые эмоции»). – М., изд-во МГУ, 1997. –С. 155-194; Зайкина С.В. Специфика осмысления концепта «страх» английским и русским языковым сознанием (сопоставительный аспект) // Человек в коммуникации : аспекты исследований : сб. науч. ст. – Волгоград: Перемена, 2005. – С. 28-33; Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матнинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол. фанлари доктори. ... дисс. автореферати. – Т., 2010. – 46 б.

4. Жельвис В.И. Эмотивный аспект речи: Психолингвистическая интерпретация речевого воздействия: Учебное пособие / В.И. Жельвис. – Ярославль: ЯГПИ им. К.Д. Ушинского, 1990. – 81 с.

5. Lapata M., Brew C. Verb class disambiguation using informative priors [Text] / M. Lapata, C. Brew // Computational Linguistics. – 2004. – № 30(2). – P. 45-73.